
FUQAROLAR QABULIDA MUROJAATLAR YeCHIMINI TOPMOQDA

Bugun, Toshloq tumani hokimining navbatdagi fuqarolar qabuli tuman Xalq qabulxonasi binosida o'tkazildi.

Qabulda tuman Xalq qabulxonasi mudiri, tegishli tashkilot, korxonalar rahbarlari hamda fuqarolar ishtirok etdi. Fuqarolarimiz tomonidan asosan kredit ajratish, oilaviy masalalar, ishga joylashish, davolanish uchun moddiy yordam ajratish, yoshga doir bolalar puli va nogironlik nafaqasi olishda yordam so'rab va yana bir nechta turdagi masalalar yuzasidan murojaat qildilar.

Tuman hokimi fuqarolarning murojaatlariga yechim topish yuzasidan korxonalar va tashkilot rahbarlari hamda tegishli mas'ullarga ko'rsatmalar berib o'tib, natija uchun ma'lum muhlatlar belgiladi.

Shuningdek, ayrim masalalar yuzasidan murojaat egalari qonun doirasida huquqiy tushuncha va maslahatlar berib o'tdi.

2023-10-31 14:08:04